

YOSHLARНИ VATAN HIMYOYACHILARI SIFATIDA TARBIYALASHDA OILANING O'RNI

Sattorova Zamira Egamberdiyevna

Sergeli tumani 104-maktab matematika o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim deb ta'kidlaydilar. Mana ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq"¹. Darhaqiqat, shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va etiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Vatan va oila bir – birini taqoza etuvchi ikki tomon – ona – yurt va xalqini o'z ichiga oladi. Vatanparvarlik esa ona – yurt va xalqiga sadoqatdir. Vatan – kindik qonimiz to'kilgan zamin, oila qo'rg'oni. Vatan-qalb tuyg'ularimiz jo bo'lgan maskan. Vatanga muhabbat tuyg'usi ona allasidan, oiladan boshlanadi. Inson o'z Vatanida oilasi bag'rida kamol topadi, qadrlanadi, hurmat-ehtirom, e'zoz, izzatga yetishadi.

Biz bugun tarixiy davrda – xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib tinch va osoyishta hayot kechirayotgan, avvalombor, o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqorolik jamiyatni qurish yo'lida ulkan natijalar qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov takidlaganlaridek: "Ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom, hech kimdan kam bo'lmasdan, boshini baland ko'tarib yashaydigan Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, halqimiz intilayotgan kelajagi buyuk davlatni barpo etishga qodir bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash" dan iborat vazifa kun tartibimizda turgan eng asosiy vazifalardan biridir. Haqiqatdan, "Vatanni sevmoq iymondandir", "Vatan ostonadan boshlanadi", "Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur, qudratli elning farzandlari sog'lom bo'lur" degan hikmatli iboralar bejiz aytilmagani bois yoshlar qalbida vatanni sevish, vatan uchun bor kuch-g'ayratini bag'ishlash, vatan nomi, mavqeい bilan g'ururlanish xislatlarini singdirish masalasi oiladan boshlanadi. Shu bois ham oilalarda har tomonlama sog'lom avlodni tarbiyalashga jiddiy e'tibor qaratiladi. Chunki sog'lom farzand-jamiyatning bebaho boyligidir, inson sog'lom bo'lsagina o'z iste'dodi, aqli, g'ayrati va fidoiyligi bilan

¹ Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. –B.22-23.

Vataniga, xalqiga, umuman, jamiyatga xizmat qila oladi. Shu bois ham, o‘z kelajagini o‘ylagan har bir jamiyat yosh avlodning ma’naviy va jismoniy kamoloti haqida qayg‘uradi.

Hozirgi kunda eng katta e’tibor yoshlarga qaratilmoqda. Buni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi quyidagi so‘zlaridan ham anglash mumkin: “Yoshlarimizga munosib ta’lim berish, ularning ilm-fanga bo‘lgan intilishlarini ro‘yobga chiqarishimiz kerak”². Kelajakda bu e’tiborni oqlash esa yoshlarning eng katta va mas’uliyatli burchidir. Buning uchun yaxshi o‘qishlari, zamonaviy bilim olishlari lozim. Chunki, hozirgi zamon texnologiyasi talabalariga mos va xos fikrlash, tashabbuskor va ijtimoiy faol bo‘lishimiz ertangi kunimiz, porloq kelajak va shon-shuhratimiz biz yoshlarning qo‘lida.

Jamiyatda yuksak manaviy fazilatlarni kamol toptirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an’analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, oilaga, vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga, milliy qadriyatlarimiga nisbatan sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarni hal qiluvchi omilidir. Ayniqsa, yoshlarimizda milliy g‘oya, huquqiy madaniyat, ijtimoiy-siyosiy ong, axloq va nafosat, madaniy va manaviy bilimlarini oshirib borish asosida oila muhitini yanada sog‘lomlashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, ushbu masalalar doirasida oila muhitida tarbiya topayotgan har bir farzand ongiga milliy mafkurani singdirish uchun milliy ong va tafakkurni shakllantirish uchun zamin yaratish orqali ularda oilasi, Vatani, xalqi bilan chin qalbdan g‘ururlanish his-tuyg‘ularini tarkib toptirib borish va rivojlantirish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni e’zozlashga, o‘z qadr-qimmatini bilishga, millatlararo totuvlik, tolerantlik fazilatlarini shakllantirish kerak.

Har bir jamiyat barqarorligi va rivojlanishini ta’minlashda oila o‘ziga xos ijtimoiy institut hisoblanadi. Chunki oila bir butun jamiyatda avlodlar davomiyligini ta’minlovchi, muqaddas urf-odatlarni saqlovchi, avlodlar tarbiyasini muntazam takomillashtiruvchi maskandir. Oila muhiti ta’siridan oqilona foydalangan holda eng avvalo yoshlarda vatan himoyachisi bo‘lishdek oliy burchni his etish tuyg‘ularini tarbiyalash, kelajakda vatan himoyachisi sifatida mas’uliyatni his qilishga o‘rgatish texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali ularda asta sekinlik bilan javobgarlik, daxldorlik, fidoiylik tuyg‘ularini yosh xususiyatlarini hisobga olgan xolda shakllantirib borish kerak bo‘ladi.

² Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi gazetasi, 2018 yil.

Yoshlarimizga “O‘z uyingni o‘zing asra”, “Oilam tinch yurtim tinch”, “Ogohman obodman” kabi shiorlarning mazmun mohiyatini to‘g‘ri tushuntirish va har qanday voqelikka nisbatan ogoh va xushyor bo‘lishga o‘rgatish kelajakda o‘sib kelayotgan har bir yoshda vatanparvarlik tuyg‘usini, manaviy dunyoqarashini shakllantirish, o‘z burchini bajarish bilan faxrlanish xislatlarini yuksak darajada tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Oilada shakllangan odob-axloq, xulq atvor keyinchalik mahallada, mehnat jamoalarida, o‘quv muassasalarida rivojlanib shaxsning ongi va qalbiga singib boradi. Bu ezgu ishlarni amalga oshirishda eng avvalo oila muhitida o‘rtoqlik va birodorlik, o‘zaro yordam,adolatlilik, xushmuomalalik, mehr-shafqatlilik, o‘zaro hurmat, samimiylilik, saxiyilik, vijdonlilik, kamtarlik, rostgo‘ylik, or-nomuslilik, diyonatlilik, insoflilik, sof dallik va boshqa ijobiy fazilatlarini tarbiyalash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. *Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.* –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –B.22-23
2. Tursunov Sh.R. *Talabalarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar. P.f.f.d (PhD) Dissertatsiya ishi*
3. Akramova Sh., Salomov N. *Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillari* – T: Ma’naviyat, 2015. – 30 b.
4. Gaipnazarov R. *Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasida uyg‘unlik: Ped. fan. nom. dis.* – T: O‘zDJTU, 2011.– 132 b.
5. Muxtorov A. *Globallashuv sharoitida ma’naviy tahdidlarni bartaraf etish omillari.* – T: Ma’naviyat, 2015. – 31 b
6. Nishonova S. *Yoshlar tarbiyasining ma’naviy ildizlari.* – T.: Yangi asr avlod, 2008. – 186 b.